MARKAZIY OSIYODA XAVFSIZLIK VA BARQARORLIKNI TA’MINLASHDA YANGI O‘ZBEKISTON TASHABBUSI

Paluaniyazov Bayram Yesemuratovich
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotasiya. Mazkur maqolada Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlashda Yangi O‘zbekiston tashabbusi haqidagi fikrlar ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada bugungi kunda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning siyosiy irodasi, xalqparvar va millatparvar siyosati, Markaziy osiyo mintaqasida olib borayotgan faol tashqi siyosati tufayli qo‘shni davlatlar bilan har tomonlama, o‘zaro manfaatli aloqalarni tobora rivojlanib borayotganligi ilmiy jihatdan yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, Markaziy Osiyo, xavfsizlik, barqarorlik, globallashuv, geosiyosat, mintaqa, tahdid.

Bugungi kunda globallashuv va geosiyosiy raqobat kuchayib borayotgan bir davrda mintaqaviy xavfsizlik masalasi har bir davlat uchun strategik ahamiyat kasb etmoqda. Markaziy Osiyo geografik joylashuvi, tabiiy resurslari va transport kommunikatsiyalari tufayli xalqaro manfaatlar tutashgan hudud hisoblanadi. Shu bois, mintaqada tinchlik va barqarorlikni saqlash va ta’minlash barcha davlatlar uchun muhim hisoblanadi. Keyingi yillarda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar «Yangi O‘zbekiston» konsepsiyasi doirasida nafaqat ichki taraqqiyotni, balki mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlashga ham alohida e’tibor qaratilmoqda.

Dunyoda bo‘lyotgan global murakkab o‘zgarishlar Markaziy Osiyo mintaqasiga ham o‘zining ta’sirini ko‘rsatmoqda. Bu esa mazkur hududdagi davlatlarning milliy xavfsizligini ta’minlash doirasida keng ko‘lamli muammolarni tizimli hal etish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Markaziy Osiyo mintaqasi milliy xavfsizligiga qaratilgan tahdidlar muammosini o‘rganish geosiyosiy va geostrategik jihatdan dolzarb hisoblanadi. Markaziy Osiyo mintaqasi xavfsizlik nuqtai nazaridan dunyoning eng muhim va murakkab mintaqalaridan biridir. Xususan, Rossiya, AQSH, Xitoy kabi yirik davlatlarning ushbu mintaqaga nisbatan geosiyosiy loyihalari va geoiqtisodiy manfaatlari hamisha inobatga olinishi kerak. Eron yadro dasturi bilan bog‘liq kelishmovchiliklar, Afg‘onistondagi noaniqlik davri hali tugamagani, Kavkazdagi keskinlikning mintaqaga salbiy ta’sir ko‘rsatishi xavfi, radikalizmning paydo bo‘lishi, Sharqiy Turkiston muammosi, Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida kelishmovchiliklar mavjudligi suv va yer resurslari bilan bog‘liq muammolar bu geografiyaning qanchalik murakkab ekanligini ko‘rsatadi. Darhaqiqat, bugungi kunda mamlakatimiz mintaqaviy loyihalarni amalga oshirish nuqtai nazaridan asosiy davlatga aylandi. Shu bilan birga, O‘zbekistonda qayta ishlab chiqarish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Bu katta

mehnat resurslari, kapital va intellektual resurslarni rivojlantirish istiqbollari bilan bog‘liq. Bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: “Bizning umumiy maqsadimiz – Markaziy Osiyoni barqaror, iqtisodiy jihatdan rivojlangan va gullab-yashnagan mintaqaga aylantirish. Buning uchun biz milliy istiqbollarni mintaqaviy ustuvorliklar bilan birlashtirishimiz, ziddiyatlarni keltirib chiqaradigan va oziqlantiradigan sharoit va sabablarni yo‘q qilishimiz kerak”[1], - deya ta’kidlagan edi. Shu o‘rinda, Markaziy Osiyoda xavfsizlikka ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy tahdidlar quyidagilardan iborat:

-transmilliy terrorizm va ekstremizm;

-narkotrafik va uyushgan jinoyatchilik;

-suv-energetika resurslari bilan bog‘liq muammolar;

-Afg‘onistondagi noaniq siyosiy vaziyat;

-ekologik muammolar, xususan, Orol fojiasi shular jumlasidandir. Mazkur tahdidlar bir davlat doirasida hal etib bo‘lmaydigan, kompleks va umummintaqaviy yondashuvni talab etuvchi muammolardir. Bugungi kunda mintaqada yaxshi qo‘shnichilik siyosatini izchil amalga oshirayotgan “Yangi O‘zbekiston” tashabbusi doirasida mamlakat tashqi siyosatida tub o‘zgarishlar amalga oshirildi. Xususan: qo‘shni davlatlar bilan o‘zaro ishonch va ochiq muloqotga asoslangan munosabatlar yo‘lga qo‘yildi, chegara masalalari bo‘yicha kelishuvlarga erishildi, mintaqaviy iqtisodiy va transport loyihalari faol qo‘llab-quvvatlandi, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar doirasida hamkorlik aloqalari kuchaytirildi. Albatta bu siyosat xavfsizlikni faqat harbiy usullar orqali emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, ishonch va o‘zaro manfaatlar asosida ta’minlash g‘oyasiga tayanishini namoyon etdi.

Bu mintaqada O‘zbekiston transport-kommunikatsiya loyihalarini ilgari surish va mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlashda yetakchi rol o‘ynashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlariga nisbatan ochiq va pragmatik siyosati tufayli mintaqaviy aloqalar tiklandi, chegaralar ochildi; havo, avtobus va temir yo‘l yo‘nalishlari qayta ishga tushirildi va yangi yo‘nalishlar bilan boyitildi; odamlar o‘rtasida bordi-keldi aloqalari ham osonlashdi, bu esa, o‘z navbatida, mintaqalararo iqtisodiy va savdo aloqalarining rivojlanishiga yangidan-yangi imkoniyatlarni yaratdi.

Bugungi kunda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning siyosiy irodasi, xalqparvar va millatparvar siyosati, Markaziy Osiyo mintaqasida olib borayotgan faol tashqi siyosati tufayli qo‘shni davlatlar bilan har tomonlama, o‘zaro manfaatli aloqalarni tobora rivojlanib borayotganligi e’tirofga sazovardir. Bu borada, keyingi yillarda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning tashabbusi bilan mintaqamizdagi qardosh davlatlar bilan do‘stona aloqalarimiz yangi bosqichga ko‘tarildi. Dunyo siyosatida “***Markaziy Osiyo ruhi***” degan ibora va voqelik paydo bo‘lgani barchamizning katta yutug‘imiz e’tirofga sazovardir. 2025 yil mart oyida O‘zbekiston – Qirg‘iziston – Tojikiston chegaralari o‘zaro tutashgan nuqtada “**Do‘stlik**” stelasi o‘rnatilgani mintaqamizdagi yaxshi qo‘shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlanib borayotganligini yorqin ifodasidir.

Shu bilan birga, O‘zbekistonning tashabbusi bilan Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining maslahat uchrashuvlari yo‘lga qo‘yilib, ular mintaqaviy muammolarni ochiq muhokama qilish maydoniga aylandi.

Davlatimiz rahbari qayd etganidek, mintaqamiz davlat rahbarlarining yaqinda Toshkentdagi Maslahat uchrashuvi chog‘ida biz integratsiya jarayonlarini yangi sifat bosqichiga ko‘tarish uchun Markaziy Osiyo hamjamiyati strategik formatini tashkil qilish g‘oyasini ilgari surdik. Ozarbayjonni Markaziy Osiyo hamjamiyati formatiga to‘la huquqli a’zo sifatida qabul qilish to‘g‘risidagi qaror tarixiy ahamiyatga ega bo‘ldi[2],-deya ta’kidlagan edi. Prezidentimizni fikriga ko‘ra, ushbu qadam Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkaz o‘rtasida strategik bog‘liqlik va barqarorlikni kuchaytirishi shubhasiz.

Bu format o‘zaro ishonchni mustahkamladi, xavfsizlikka doir umumiy pozitsiyalarni shakllantirdi va iqtisodiy hamkorlik orqali barqarorlikni ta’minlashga xizmat qilmoqda. Shuningdek, Afg‘oniston masalasida O‘zbekistonning konstruktiv va betaraf yondashuvi mintaqaviy xavfsizlikni saqlashda muhim rol o‘ynamoqda. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasini

yaxshi qo‘shnichilik aloqalarini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan siyosati mintaqada barqarorlikni ta’minlash, Afg‘onistondagi vaziyatni yaxshilash, chegaralar yaqinidagi suv resurslaridan samarali foydalanish ichki barqarorlikni saqlashga xizmat qilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoev tashqi siyosatida xavfsizlik masalalari keng qamrovli va kompleks yondashuv asosida qaraladi. Terrorizm, ekstremizm va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashda mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirish muhim vazifa sifatida belgilangan. Afg‘oniston masalasida O‘zbekistonning tinchlikparvar siyosati mintaqada barqarorlikni saqlash va xavfsizlikni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Bu yondashuv Markaziy Osiyoni hamkorlik va taraqqiyot hududi sifatida shakllantirishga qaratilgan.

Prezident Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan mintaqadagi Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston mamlakatlari bilan ikki tomonlama va ko‘p tomonlama munosabatlar yangi bosqichga ko‘tarildi. Ayniqsa, chegara masalalarining katta qismi ijobiy hal etildi, savdo-iqtisodiy aloqalar faollashdi, transport va logistika yo‘laklari rivojlantirildi. Bu borada, mintaqa davlat rahbarlarining o‘tkazib kelinayotgan muntazam uchrashuvlari, jumladan, Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining maslahat uchrashuvlari mintaqada ochiq muloqot va ishonch muhitini yaratishga xizmat qilmoqda. Shuni alohida qayd etish joizki, Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev tashqi siyosatda iqtisodiy diplomatiyaga alohida e’tibor qaratmoqda. Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdo hajmini oshirish, qo‘shma korxonalar tashkil etish, energetika va infratuzilma loyihalarini amalga oshirish mintaqada o‘zaro bog‘liqlikni yana kuchaytirdi. Bu esa o‘z navbatida xavfsizlik va barqarorlikning mustahkam iqtisodiy poydevorini yaratishga zamin yaratmoqda.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, Markaziy Osiyoning deyarli barcha davlatlari o‘z milliy xavfsizligini mustahkamlab, barqarorlashtirmoqda, migratsiya, narkotrafik, ekstremizm, milliy o‘zlikni anglash, separatizm, terrorizm kabi ko‘plab muammolar paydo bo‘lishi tufayli uning o‘rnini bosdi. Markaziy Osiyoda terrorizm muammosi haqida gap ketganda, uning tarqalishining quyidagi turlari mavjud: “Afg‘oniston, Pokiston, Tojikiston, O‘zbekiston orqali boshqa mintaqa davlatlariga tarqaladi va e’tiborga olish kerak bo‘lgan narsa ularning islom fundamentalizmi asosida tarqalishi; ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning tubi, siyosiy loqaydlik, e’tiborsizlik va boshqalar”[3].

Shu o‘rinda, davlatning ichki xavfsizlik organlari, Kollektiv Xavfsizlik Shartnomasi, SHHT, MDH ishtirokchilarining terrorizmga qarshi tashkiloti, BMTning Narkotiklar va jinoyatchilikka qarshi kurash tashkilotidan tashqari terrorizm, ekstremizm va giyohvand moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashuvchi bir qancha tashkilotlar bor. Bu tashkilotlarning barchasi Markaziy Osiyoda terrorizm, ekstremizm va giyohvandlikka qarshi kurash olib boradi. Markaziy Osiyodagi tahdidlar o‘zining geosiyosiy va tabiiy resurslari bilan mintaqaviy davlatlar e’tiborini tortadi, bu e’tibor ekspertlar tomonidan xavfning ekstremal darajasi sifatida talqin qilinadi. Ushbu vaziyatni hal qilishning eng maqbul yo‘li - tahdidlar darajasi oshgan davlatlar hamkorligi va hamkorligini oshirishdir.

Xulosa qilib aytganda, Prezident Shavkat Mirziyoevning Markaziy Osiyo mintaqasida olib borayotgan faol tashqi siyosati mintaqaviy hamkorlikning yangi modelini shakllantirdi. Zero, mintaqadagi o‘zaro ishonch muhiti, yaxshi qo‘shnichilik va iqtisodiy integratsiyaga asoslangan ushbu siyosat Markaziy Osiyoni tinch, barqaror va barqaror rivojlanayotgan hudud sifatida mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Strategiya deystviy Respubliki Uzbekistan na 2017–2021 gody. Tashkent, 2017. // Narodnoeslovo. 7 iyunya 2017.

2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси https://president.uz/uz/lists/view/8834

3.Рахимзода Ш.К. Информационная война и проблемы обеспечения национальной безопасности в Центральноазиатском регионе: диссертация ... кандидата политических наук. - Душанбе, 2020. - 144 с.